

## SHUKRULLO LIRIKASIGA XOS POETIK OBRAZLAR

**Kurbanova Saida Bekchanovna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi**

### POETIC IMAGES IN SHUKRULLO'S LYRICS

**Kurbanova Saida Bekchanovna, Associate professor, Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni, candidate of Philological Sciences**

### ПОЭТИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ В ЛИРИКЕ ШУКРУЛЛО

**Курбанова Саида Бекчановна, доцент Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни, кандидат филологических наук**



<https://orcid.org/0000-0001-5394-6922>  
e-mail: [saida-09@mail.ru](mailto:saida-09@mail.ru)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Shukrullo lirikasida ko‘p uchraydigan poetik obrazlar tahlil etiladi. Shoир borliqdagi u yoki bu faktdan kelib chiqib, poetik fikr va g‘oyani obraz darajasiga chiqaradi. Hayotiy voqealar va faktlar esa falsafiy mushohada uchun vosita sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Shukrullo, she’riyat, poetik obraz, metafora, assotsiativlik, ramz, ijtimoiylik.

**Abstract:** The article analyzes poetic images common in Shukrullo’s lyrics. The poet, based on one or another fact of existence, elevates poetic thought and idea to the level of an image. Life events and facts serve as a tool for philosophical thinking.

**Keywords:** Shukrullo, poetry, poetic image, metaphor, associativity, symbol, sociality.

**Аннотация:** В статье анализируются поэтические образы, распространенные в лирике Шукрулло. Поэт, основываясь на том или ином факте бытия, возводит поэтическую мысль и идею на уровень образа. Жизненные события и факты служат инструментом философского мышления.

**Ключевые слова:** Шукрулло, поэзия, поэтический образ, метафора, ассоциативность, символ, социальность.

**KIRISH.** Shoир dunyonи badiiy obraz vositasi bilan o‘z ijodida qaytadan yaratadi. Badiiy obraz metafora, assotsiativ obrazlilik, ramziylik, ko‘p ma’noliligi bilan belgilanadi. Zero, bu haqda “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da shunday deyiladi: “Badiiy obrazning muhim xususiyatlaridan yana biri uning ko‘p ma’noliligi bo‘lib, bu uning metaforikligi va assotsiativligi bilan belgilanadi. Badiiy obrazga xos “metaforiklik”ni “o‘xshashlik” bilangina bog‘lab qo‘ymaslik lozim. Ya’ni “metaforiklik” deganda, badiiy obrazning san’atga xos fikrlash yo‘sini tushuniladi. Chinakam san’atkor nigohi mohiyatga qaratiladi, u narsa-hodisalar o‘rtasidagi tashqi o‘xshashlikka tayanib fikrlaydi. U biz kutmagan ichki o‘xshashlikni kashf etadi, natijada, o‘sha biz bilgan narsa-hodisa ko‘z oldimizda butkul

yangicha bir tarzda gavdalanadi, o‘zining bizga noayon qirralarini namoyon qiladi”[4: 46].

Shukrullo lirikasida ham kutilmagan, o‘ziga xos poetik obrazlar uchraydi. Jumladan, shoир she’riyatida turna, simyog‘och, momaqaldiroq, shoир, daraxt, yaproq, bog‘, yo‘lovchi, chinor, tol obrazlari tez-tez uchraydi. Bu obrazlar shoир lirikasida ko‘p qatlamlı, ko‘p ma’noli, metaforik obraz sifatida ishtirok etadi.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA.** Adabiyot nazariyasi va badiiy asarning ilmiy-nazariy tahliliga oid o‘zbek adabiyotshunoslarning asarlariga, nazariy qarashlariga murojaat etildi. Xususan, maqolada o‘rtaga qo‘ylgan muammolar B.Nazarov, N.Rahimjonov, D.Quronovlar asarlaridagi ilmiy-

nazariy qarashlar asosida ochib berildi. Ishda analiz, sintez, qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Shukrullo she'riyatidagi poetik obrazlarning o'ziga xosligi ular anglatgan ma'no mohiyatidan kelib chiqadi. Chunki poetik timsol va obrazlar zohiriylar va botiniy ma'no kasb etib, so'zning timsolli ma'no qirralari she'rning falsafiy, badiiy-estetik ta'sir quvvatini oshirishga xizmat etadi. Demak, ijodkorning badiiy tafakkuri va ijodiy individualligi bilan bog'liqlikda yuzaga chiqadigan mazkur hodisa har bir shoir lirkasining obrazlar tizimini, uning o'ziga xos xususiyatlarni ham belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, Shukrullo she'riyatidagi aksariyat ma'nodor poetik obraz va timsollar zimmasiga ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy mazmun yuklanadi.

Xususan, shoirning "Nafrat" nomli she'rida turna va simyog'och poetik obrazlari erk-ozodlik hamda tutqunlik ramzining badiiy ifodasidir:

Ko'kda qator-qator turnalar uchmoqda,  
Ular faryodin tinglaydi osmon.

Pastda qator-qator simyog'ochlar jim,  
Qo'llari bog'langan asirlarsimon.

Ko'kda qo'shiq,  
Yerda faryod!..

Qayga uchayotir turnalar... [2:59]

Bu she'rdada lirk qahramonning erksizlikka va tutqunlikka qarshi nafrati ifodalangan. Shukrulloning ikkinchi bir she'rida esa momaqalldiroq va shoir poetik obrazlari orqali haqiqatni aytishga shaylangan haqiqatparast, adolatparvar ijodkor obrazni badiiy poetiklashtiriladi:

Ko'kka bulut chiqdi, momaqalldiroq  
Dardin aymoqchiday soldi gulduros.

Birdan qovoq soldi shoir ham shu choq,  
Bir gap demoqchiday olamga ro'y-rost.

Ko'zyoshdek yumalab to'xtadi yomg'ir,  
Qayta quyosh chiqib yashnadi dunyo.  
Ochiq chehra bilan boqdi atrofga shoir,  
Olam bo'lqa, derdi, shunday musaffo [2: 65].

She'rning ikkinchi bandida yomg'ir yog'ishi to'xtagach, olamning musaffo bo'lishi tasviri shoir yuragidagi jamiyatni, hayotni ana shunday musaffo va toza, farahbaxsh ko'rish istagini badiiy ifodasidir. Shoir she'riyatida ustoz Usmon Nosir lirkasida ko'p qo'llanilgan o'ziga xos poetik obrazlar ham uchraydi. Masalan, quyidagi she'rdagi bog', to'kilgan yaproq, yo'lovchi poetik obrazlari

Usmon Nosir lirkasidagi timsollarni beixtiyor eslatib yuboradi:

Chirt-chirt uziladi bog'larda yaproq,  
Daraxtlar yuk tashlab, tortibdi yengil.  
Maysalar ichida suvlar qo'ng'iroq,  
Bir orom kayfida yayraydi ko'ng'il.

Tevarak bog'larda to'kilur yaproq,  
Mevali daraxtlar tiklaydi qaddin.  
Daraxtlar gerdaysa haqqi bor, biroq,  
Yo'lovchi, sening-chi, bormikan hadding?

[2: 117]

Yana bir she'rdada shoirning badiiy-estetik niyatini yuzaga chiqarishda chinor obrazni yordamga keladi. Unda qurigan chinor obrazni bilan inson umri qiyos etilar ekan, bu kontrast manzara orqali yuzaga chiqqan estetik xulosa o'zining go'zal poetik ifodasi, falsafiy mazmuni bilan ham ibrat, ham emotsiyalni ta'sir kuchiga ega bo'ldi:

Chinorning shoxlari quriy boshladi,  
Shunday qo'l-oyoqdan ketarkan quvvat.  
Kuz yetib sarg'ayib yaproq tashladi,  
To'kilgandek bo'lar sochlarim shu vaqt.

Bo'ronlar silkitar, chaqinlar chaqar,  
Ammo bukilmasdan turar qomati.  
Shu chinor ildizin quvvatini ber,  
O'zing keksalikning bergin omadin [3: 39].

Ushbu she'rdada tabiat asosiy tasvir obyekti sifatida namoyon bo'lmay, u lirk qahramon psixologik holatining va manzaralar mazmunining obrazli ifodasi uchun xizmat qilgan. Lirk qahramon kuz manzarasida o'z hayotining ma'nosini ko'radi, u fasllar almashinuvida hayot va tiriklik mohiyatini anglaydi. She'rdagi chinor shoxlarining quriy boshlashi, kuzda ularning sariq yaproqlarini to'kish manzarasi inson umrining chegarali ekanligini anglatuvchi chuqur badiiy mazmun kasb etadi.

Shukrullo badiiy mahorati, lirkasi badiiy-estetik ta'sir kuchining o'ziga xosligi shundan iboratki, birinchidan, ijodkor aksariyat hollarda o'quvchisini tushkunlikka tushirmaydi, balki uni qisqa umrni qadrlashga, hayotini go'zal yashashga chorlaydi, ikkinchidan, shoirning lirk qahramoni ham hayotning beshafqatligi, umrning o'tkinchiligi oldida esankirab qolmaydi va dramatik kechinmalarga berilmaydi. Ijodkorning inson umri, tiriklik talqiniga oid istalgan bir she'rini olib qarasak, uning lirk qahramoni o'tgan umriga mammuniyat va shukronalik bilan boqadi va uning qalb amrida

hayotni mazmunli o‘tkazish, umr mohiyatini yaxshilik, ezgulik, fidoyilik bilan bezash orqali mangulik yaratish mumkinligi aks etadi. Xususan, shoirning lirik qahramoni:

*Chinorning to‘kildi so‘nggi yaproq‘i,  
Qissaning yopildi go‘yo varag‘i.*

*Chinor mag‘rur boqar umridan mammun,*

*Xuddi men o‘ylagan xazon fasli bu* [2: 114] – der ekan, u atrofga mag‘rur boqqan chinor umrida o‘zining ibratli hayot yo‘lini, sermazmun umrini ko‘radi. Zero, she’rdagi chinorning oxirgi yaproq‘i to‘kilsa-da, u o‘zining o‘tgan umriga mammuniyat bilan boqadi. She’r pafosini ta‘minlagan mana shu mammuniyat hissi chinor umrining besamar o‘tmaganligini, uning qanchadan-qancha odamlarga nafi tekkanligini anglatib turadi. Ko‘rinadiki, Shukrulloning badiiy obrazlarida assotsiativlik mavjud bo‘lib, shoir borliqdagi u yoki bu faktidan kelib chiqib, poetik fikr va g‘oyani obraz darajasiga chiqaradi. Hayotiy voqealar va faktlar esa falsafiy mushohada uchun vosita sifatida xizmat qiladi.

Akademik B.Nazarov o‘zining “She’rlari – oq to‘shli qaldirg‘och” maqolasida Shukrullo she’riyatiga to‘xtalib, shunday yozadi: “60-70-yillardan e’tiboran Shukrullo poeziyasida zamon va zamondoshimizda, vatan va vatandoshimiz hayotida ro‘y berayotgan sifat o‘zgarishlarini inson qalbi kechinmalari orqali kuylash tendensiyasining yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘ramiz. Bu jarayon, ayniqsa, “Inson va yaxshilik”, “Inson inson uchun”, “Yulduzlar”, “Suyanchiq”, “Yashagim keladi” nomli she’riy to‘plamlaridagi asarlarida yorqin namoyon bo‘ladi. Shukrullo she’rlarida falsafiy tamoyil muayyanlashadi”[1:105]. Darhaqiqat, Shukrullo lirikasida individual poetik obraz darajasiga ko‘tarilgan inson, hayot, umr, yaxshilik

kabi obrazlar ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb etib, bu, birinchi navbatda, ijodkorning yuksak poetik mahoratidan dalolat bersa, ikkinchidan, shoir she’riyatida olam va odam psixologiyasi, inson va jamiyat konsepsiysi tadrijini kuzatish imkonini yuzaga chiqaradi.

**XULOSA.** Shukrullo lirikasidagi asosiy poetik obrazlar tabiatdan va real hayotdan olingan bo‘lib, shoir badiiy-estetik maqsadini poetik shaklda tasvirlar ekan, o‘zining falsafiy-estetik mushohadalarini tabiat hodisalariga, tabiat detallariga bot-bot murojaat etish orqali ifoda etadi.

Ijodkor she’riyatidagi poetik obrazlarda assotsiativlik mavjud bo‘lib, shoir borliqdagi u yoki bu faktdan kelib chiqib, poetik fikr va g‘oyani obraz darajasiga chiqaradi. Tabiat, tabiat hodisalari, borliq faktlari esa falsafiy-badiiy mushohada uchun vosita sifatida xizmat qiladi.

Shukrullo tabiat xossalari va detallarida inson umrining, taqdirining mazmunini xarakterlovchi turli belgi-xususiyatlarni topadi, majoziylik asosiga qurilgan bunday badiiy tafakkur shoir she’rlaridagi teran obrazlilikni yuzaga chiqaradi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Шукрулло ижодининг олмос кирралари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016.
2. Шукрулло. Танланган асарлар. III жилд. Шеърлар. Достонлар. – Тошкент: Шарқ, 2009.
3. Шукрулло. Шафак. – Тошкент: Академнашр, 2021.
4. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Академнашр, 2010.

